

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/04.10.2023.T.174.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ORTIQOVA KAMOLA INSOPALIYEVNA

**LINTERLASH PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH YO‘LI
BILAN URUG‘LIK VA TEXNIK CHIGIT HAMDA MOMIQ SIFAT
KO‘RSATKICHLARINI YAXSHILASH**

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

**Texnika fanlari doktori (DSc)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора (DSc) технических наук**

**Content of the dissertation abstract of Doctor of Science
(DSc) on Technical Sciences**

Ortiqova Kamola Insopaliyevna

Linterlash parametrlarini optimallashtirish yo‘li bilan urug‘lik va texnik chigit hamda momiq sifati ko‘rsatkichlarini yaxshilash 5

Ортиқова Камола Инсопалиевна

Улучшение показателей качества посевного и технического хлопкового семени и лinters путем оптимизации параметров линтерования..... 31

Ortiqova Kamola

Improving the quality indicators of seed and technical cottonseed and lint by optimizing the linting parameters..... 61

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 65

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/04.10.2023.T.174.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

ORTIQOVA KAMOLA INSOPALIYEVNA

**LINTERLASH PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH YO‘LI
BILAN URUG‘LIK VA TEXNIK CHIGIT HAMDA MOMIQ SIFAT
KO‘RSATKICHLARINI YAXSHILASHI**

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2025.4.DSc/387 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Namangan to‘qimachilik sanoati instituti hamda Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Namangan davlat texnika universitetidagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namdtu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Olimjon Sharipjanovich Sarimsakov
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qadam Jumaniyazov Jumaniyazovich
texnika fanlari doktori, professor

Ibrogimov Xolnazar Islomovich
texnika fanlari doktori, professor

Mirzaumidov Asilbek Shuxratjonovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/04.10.2023.T.174.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi fan doktori (DSc) ilmiy darajasini beruvchi ilmiy kengashning 2026 yil «24» yanvar soat 13³⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160103, Namangan shahri, “Gulobod” MFY janubiy aylanma yo‘li ko‘chasi 17-uy, Tel. (+998)95-251-43-04, (+998)55-255-43-04, e-mail: namdtu_info@edu.uz, Namangan davlat texnika universiteti 15-bino, 1-qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (107-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: Namangan shahri, Yangi Namangan tumani, Islom Karimov ko‘chasi 12-uy, Tel. (+998)69-234-14-85.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «08» yanvar kuni tarqatildi.
(2025 yil «23» oktyabrdagi № 64 -raqamli reyestr bayonnomasi).

Q.M.Xoliqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

X.T.Bobojanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

J.Q.Yo‘ldashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

Kirish (fan doktori (DSc) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda to‘qimachilik sanoatining asosiy xomashyosi paxta tolasi bo‘lib, hozirgi kunda paxta tozalash sanoatida tolani sifatli ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalar hamda vositalarni qo‘llash masalalariga alohida e‘tibor berilmoqda. Jahon miqyosida har yili 70-75 mln tonna atrofida paxta xomashyosi yetishtiriladi va undan, 24 - 25 mln. tonna paxta tolasi, 40 mln tonna chigit va 2 mln tonna momiq maxsulotlari ishlab chiqariladi. So‘ngi yillarda, ishlab chiqarish jarayonida bu maxsulotlarning tabiiy xossalarni saqlab qolish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada, paxta urug‘chiligining rivojlanishi, sellyuloza ishlab chiqarishning ko‘payib boryotgani hamda chigit va momiq maxsulotlarining sifat va miqdor ko‘rsatkichlariga bo‘lgan talabning ortgani sababli, paxta chigiti va momig‘ining sifatini yaxshilash va zamonaviy, texnologik jihatdan ishonchli va yuqori samarador linterlash mashinalarini yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda paxta chigitiga ishlov berish jarayonini, texnika va texnologiyasini rivojlantirishi, ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirish hamda chigit va momiqning tabiiy sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qolishga oid keng ko‘lamdagi ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, momiq va chigitning dastlabki sifat ko‘rsatkichlarini saqlash va jarayonlarning energiya sarfini kamaytirish, uskunalarning ixcham, sodda, kam material va energiya sarflaydigan konstruksiyalarini, zamonaviy hamda avtomatlashgan konstruksiyalarni yaratish bo‘yicha qilinayotgan tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, mahsulot sifatini boshqaradigan texnika va texnologiyalarini yaratish va ishlab chiqarish jarayoniga joriy etishni jadallashtirish orqali mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxini pasaytirish mazkur sohani rivojlantirishning dolzarb vazifalaridan hisoblanmoqda.

Respublikamizda urug‘lik chigit va momiq sifatini oshirish, ularni ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradigan yangi texnologiyalarni yaratish bo‘yicha bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, “To‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish” bo‘yicha vazifalar belgilangan¹. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, vazifalarni amalga oshirishda, xususan, paxta tozalash sanoatida ishlab chiqarilayotgan paxta tolasi tabiiy xususiyatlarini saqlash hamda resurstejamkor mahalliy texnologiyalardan foydalanib tolani chiqindiga chiqib ketib qolishini oldini olish, xususan, paxta chigitini linterlash jarayonida momiq va chigitning dastlabki sifat ko‘rsatkichlarini saqlash va jarayonning energiya sarfini kamaytirish masalalari muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 16 yanvardagi «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6-sonli farmoni, «Paxtachilik

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.

tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 28 noyabrdagi PQ-3408 son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 martdagi 253-sonli “Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida”gi qarori, 2022-yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” PF-60-sonli Farmoni va 2020-yil 6 martdagi «Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PQ-4633-sonli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22 iyundagi «Paxta to'qimachilik ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 397-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi².

Chigitdan momiqni ajratish texnologiyalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirish hamda chigit va momiqning tabiiy sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolish bo'yicha fundamental tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va injineriing kompaniyalari tomonidan izchil amalga oshirilmoqda. Bu yo'nalishda AQSh, Braziliya, Hindiston, Rossiya, Tojikiston, Xitoy, Turkiya, Bangladesh, Misr va Avstraliya kabi mamlakatlardagi ilmiy-tadqiqot institutlari faol izlanishlar olib bormoqda. Xususan, AQShda – American Association for Laboratory Accreditation, North Carolina State University The Nonwovens Institute, Florida State University Textile Testing Lab, Texas Tech University Fiber & Biopolymer Research Institute, Louisiana State University Cotton Fiber Laboratory, Gaston College Fiber Innovation Center; Braziliyada – Institute of Macromolecules Professor Eloisa Mano, Federal University of Pelotas, Federal University of Ceara; Hindistonda – ICAR Central Institute for Cotton

² a2la.org; thenonwovensinstitute.com; jimmoracollege.fsu.edu/textile-lab; itc.ttu.edu/fbri; lsuagcenter.com; gaston.edu/fic; Passos, A., Neto, R. and Tavares, M. (2020) Solid State NMR Applied to Evaluate Fibers Cotton. *Materials Sciences and Applications*, 11, 591-599. doi:[10.4236/msa.2020.118039](https://doi.org/10.4236/msa.2020.118039); Fassihi, A. and Hunter, L. (2016) Application of an Automatic Yarn Dismantler to Track Changes in Cotton Fiber Properties during Full Scale Processing of Cotton into Carded Yarn. *Journal of Natural Fibers*, 13, 555-564. <https://doi.org/10.1080/15440478.2015.1083925>; <https://cicr.org.in/>; <https://cyberleninka.ru/article/n/formalizatsiya-i-analiz-tehnologicheskikh-protsessov-pervichnoy-pererabotki-hlopka-syrtsa/viewer>; <https://cyberleninka.ru/article/n/formalizatsiya-i-analiz-tehnologicheskikh-protsessov-pervichnoy-pererabotki-hlopka-syrtsa/viewer>; <https://www.tut.tj/wp-content/>; <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0926669019302602>; Çoban, Mehmet. (2015). Cotton Production of Turkey & Role of Nazilli Cotton Research Institute; <http://cdb.sreepur.gazipur.gov.bd/en>; http://www.arc.sci.eg/InstsLabs/Pub_Details.aspx?OrgID=2&PUB_ID=68894&lang=en; <https://www.dpi.nsw.gov.au/dpi/about-us/research-and-development/centres/narrabri-australian-cotton-research-institute-acri>; <https://www.niphaindia.com/air-separator.php>; <https://bajajngp.com/>; <https://cherokeefab.com/>; <https://www.lummus.com/>; <https://www.continentaleagle.com.au/>; <https://www.sdmj.com.cn/en/cottonprocessing.html>; <https://www.china-lebon.com/95.html>; <https://www.exporthub.com/product/high-quality-cotton-ginning-machine-1741.html>;

Research; Rossiyada – Volgograd davlat agrar universiteti; Tojikistonda – Qulob texnologiya va innovatsiya menejmenti instituti; Xitoyda – State Key Laboratory of Crop Biology, Shandong Agricultural University, Heze Academy of Agricultural Sciences; Turkiyada – Cotton Research Institute; Bangladeshda – Textile Vocational Institute; Misrda – Cotton Research Institute; Avstraliyada – Australian Cotton Research Institute (Narrabri) kabi ilmiy muassasalar ushbu jarayonni takomillashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli tadqiqotlar olib bormoqda ².

Shu bilan birga, ishlab chiqaruvchi va injiniring kompaniyalari ham texnologik yechimlarni joriy etishda faol ishtirok etmoqda. Masalan, Hindistonda – Nipha, Bajaj Steel Industries Limited; AQShda – Cherokee, Lummus Ag Solutions, Continental Eagle Pty Ltd.; Xitoyda – Shandong Swan Cotton Industrial Machinery Stock Co., Ltd., Qingdao Lebon Industry Co., Ltd.; Pokistonda – Haseeb Ramzan Agri Mech Eng Company kabi kompaniyalar o‘zining innovatsion ishlanmalari bilan ushbu sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shmoqda.

So‘nggi yillardagi ilmiy izlanishlar natijasida linter mashinalarining konstruktiv elementlarini takomillashtirish, ish unumdorligini oshirish va sifatli momiq olish borasida muhim yutuqlarga erishilgan. Masalan, AQShdagi North Carolina State University, College of Textiles; Hindistondagi Indian Institute of Technology, Department of Textile and Fibre Engineering; Buyuk Britaniyadagi University of Manchester, School of Materials kabi yetakchi oliy ta‘lim muassasalarida paxta tolasi va uni dastlabki qayta ishlash jarayonlariga oid ilmiy maktab shakllangan.

Qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi ilmiy markazlarda ham paxta yetishtirish va uni qayta ishlash texnologiyalari bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, Texas A&M University, Department of Soil and Crop Sciences (AQSh), Punjab Agricultural University (Hindiston), Central Institute for Research on Cotton Technology (CIRCOT) (Hindiston) shu yo‘nalishda faoliyat yuritmoqda.

Texnika va politexnika institutlari ham mazkur sohada kadrlar tayyorlash va ilmiy izlanishlarni amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi. Masalan, National Institute of Technology (Hindiston), Technical University of Liberec, Faculty of Textile Engineering (Chexiya), Southern Institute of Technology (Yangi Zelandiya) kabi oliy ta‘lim muassasalarida paxta texnologiyalari va mashinasozlik bo‘yicha ta‘lim dasturlari taklif qilinmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Paxta tolasini chigitdan ajratish va linterlash texnologiyasi yuz yildan ortiq vaqt davomida dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va ishlab chiqarish korxonalarida izchil o‘rganib kelinmoqda. AQSh, Rossiya, Xitoy va Turkiya kabi mamlakatlarda linter mashinalarining konstruktiv tuzilishi va samaradorligini oshirish bo‘yicha bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, arrali silindrning diametri, aylanish tezligi, konstruksiyasi va havo oqimi parametrlarining momiq sifati hamda urug‘likning mexanik shikastlanishiga ta‘siri yuzasidan nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Hozirgi kungacha bo‘lgan taraqqiyot bosqichlarida jarayonning nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqildi, u butun boshli texnologik zanjir sifatida shakllandi va

rivojlandi. Xitoylik Zhicheng Liu, Long Wang, Zhiyuan Liu, Xufeng Wang, Can Hu illiford, Zhang YJ, Tian XL, Li ZH, Wang GQ kabi ixtirochi va olimlar, shuningdek Boldinskiy I.G., Miroshnichenko G.I., Xoxlov I.I., Zikriyoyev E, Axmedxodjayev X.T., Safarov N.M., Muradov R.M., Yunusov S.Z., Agzamov M., Kort I.D., Davidbayev Kh.K., Yunusov R.F., Ergashev J.S., Usmanov X.S., Kattaxodjayev R.M., Fazildinov S., Maksudov I.T., Azizxodjayev A., Jurayev A., Muxamadiyev D.M., Sarimsakov O.Sh., Azimov S. Azambayev M. va No‘manov M. kabi Vatanimiz olimlari nafaqat paxta tolasini chigitdan ajratish jarayoni texnika va texnologiyasining taraqqiyotiga alohida hissa qo‘shganlar.

Hozirgacha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, asosan, chigitdan momiqni ajratish jarayoni va mashinalarini takomillashtirishning ayrim jihatlarini hal etishga, linter mashinalarini chigit bilan ta‘minlash hamda xomashyo oqimini rostlash masalalariga qaratilgan bo‘lib, natijada linterlash texnologiyasi muayyan darajada rivojlangan, olinadigan mahsulotlarning sifat va miqdor ko‘rsatkichlari yaxshilangan. Shu bilan birga, linter mashinalarida xomashyo valigi zichligiga muvofiq holda jarayonni xomashyo bilan ta‘minlash, resurstejamkor, mahsulot tabiiy xususiyatlarini saqlash, mashina unumdorligini oshirish hamda energiya sarfini kamaytirish imkonini beruvchi yangi konstruksiyalarni yaratish masalalari yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Xususan, urug‘lik va texnik chigitlarning shikastlanish darajasi hamda momiq tarkibidagi ifloslikni kamaytirish, mashina ishchi organlari tezlik parametrlarini boshqarish masalalari chuqur o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat texnika unversitetining ilmiy ishlar rejasi “Linter ishchi qismlarining samarali konstruksiyasini yaratish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi linterlash jarayonida ishchi kameradagi arrali silindr va to‘zg‘itkichning tezlik rejimlarini hamda arrali silindr diametrini o‘zgartirish va ishchi organlari harakat parametrlarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, ularning o‘zaro ta‘sirini aniqlash hamda optimal boshqaruv rejimlarini ishlab chiqish orqali urug‘lik va texnik chigit hamda momiqning sifat ko‘rsatkichlarini optimallashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Linterlash jarayonining ishchi kameradagi arrali silindr va to‘zg‘itkichning linterlash jarayonining ishchi kameradagi arrali silindr va to‘zg‘itkichning o‘zaro ta‘sir dinamikasini nazariy asosda tahlil qilish, jarayon parametrlariga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning o‘zaro bog‘liqligini baholash.

Arrali silindr diametri hamda tezlik rejimlarining o‘zgarishi linterlash jarayonining texnologik samaradorligi, energiya sarfi, chigitning mexanik shikastlanish darajasi va momiq sifat ko‘rsatkichlariga ta‘sirini aniqlash bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish.

Linter mashinasining ishchi organlari harakat parametrlarini matematik modellashtirish, ularning optimal qiymatlarini aniqlash va jarayonni boshqarish uchun amaliy model ishlab chiqish.

Linterlash jarayonining optimal boshqaruv tizimini ishlab chiqish, uni amaliy tajriba asosida sinovdan o'tkazish va nazariy natijalar bilan taqqoslash.

Linterlash jarayonining optimal texnologik parametrlarini asoslash, momiq va chigit sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan texnik tavsiyalar ishlab chiqish.

To'zg'itgich parametrlarining urug'lik va texnik chigit hamda momiq ajratish sifatiga ta'sirini o'rganish;

Avtomatlashtirish elementlarini joriy etish orqali linterlash jarayoni samaradorligini oshirish.

Taklif etilgan nazariy va amaliy yechimlarning ishlab chiqarish sharoitida joriy etish imkoniyatlarini asoslash hamda ularning texnik-iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqotning obykti sifatida paxta tozalash korxonalarida sifatida JIII seriyadagi linter mashinalari olingan.

Tadqiqotning predmetini linter mashinasi ishchi kamerasida xomashyo valigi zichligini belgilovchi omillar, to'zg'itgich hamda arrali silindrning tezlik parametrlari hamda aylanuvchi mexanizmlar tezlik parametrlarini va texnologik jarayonlarni boshqarish qurilmalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, eksperimental tadqiqotlar, matematik modellashtirish, statistik ishlov berish, sanoat sharoitida sinovlar kabi asosiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xomashyo valigining arrali silindr va to'zg'itgich ta'siridagi statik va dinamik holatlarini modellashtirish va tahlil qilish orqali linter mashinasida arrali silindr va to'zg'itgich tezligini boshqarish usuli ishlab chiqilgan;

linter mashinasi ishchi kamerasida arrali silindr, to'zg'itgich va chigit harakati qonuniyatlari tahlili asosida linterlash jarayonining kinematik va dinamik parametrlari – aylanish chastotalari va ularning nisbati aniqlangan;

momiq sifati va linter ish unumdorligining to'zg'itgich va arrali silindr tezlik parametrlariga bog'liqlikni hisobga olgan holda zarur sifat va unumdorlik darajasiga qarab arrali silindr va to'zg'itgich tezligini rostlovchi linterlash texnologiyasi ishlab chiqilgan;

arrali silindr diametri, aylanish tezligi va to'zg'itgich tezligining linter mashinasi ish unumdorligi hamda olinadigan mahsulot sifati bilan o'zaro bog'lanish qonuniyati tahlili asosida arrali silindr va to'zg'itgich tezligini avtomatik boshqarish imkonini beruvchi qurilma yaratilgan;

to'zg'itgich elektromotorining tok kuchi va linter xomashyo valigining zichligiga bog'liqligi asosida to'zg'itgich elektromotori tok kuchining ratsional parametrlari aniqlangan;

xomashyo valigining to'zg'itgich va arrali silindr ta'siridagi harakatini modellashtirish orqali momiqning kerakli sifat ko'rsatkichlari va energiya sarfini ta'minlovchi arrali silindr va to'zg'itgich aylanish tezliklarining ratsional qiymatlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

arrali silindr va to'zg'itgich aylanish tezliklarining ratsional qiymatlari asosida linter mashinasining ish unumdorligi 10% ga oshirilgan, ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori ko'paygan;

tezlik parametrlarini optimallashtirish orqali elektr energiya sarfi 10% ga kamaytirilgan, bu esa ishlab chiqarish harajatlarini pasaytirishga imkon bergan;

linterlashdan so'ng momiqdagi iflos aralashmalar miqdori 5,8% dan 4,3% gacha tushirilishi natijasida paxta momig'i sifati oshgan;

elektromotorning yuklanish toki orqali avtomatik ravishda boshqariladigan tizimi ishlab chiqilgan, bu esa mashina ishini yanada barqarorlashtirishga imkon bergan;

har bir linter mashinasi uchun individual boshqaruv tizimi ishlab chiqilishi natijasida ularning har birini alohida boshqarish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida natijalar statistik ishlovdan o'tkazilib, $PD=0,95$ ehtimollik darajasida ishonchliligi tekshirilgani, eksperimental sinovlar sanoat sharoitida o'tkazilib, natijalar amaliy qo'llanilishga mos ekanligi isbotlangani, olingan natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlil qilingani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati arrali silindr va to'zg'itgich aylanish tezliklar hamda arrali silindr diametrlarining qiymatlarini optimallashtirish bo'yicha nazariy modellar taklif etilishi, linterlash jarayonining samaradorligi, momiqning sifat ko'rsatkichlari hamda chigitning mexanik shikastlanish darajasiga modellashtirish va optimallashtirish bo'yicha yangi yondashuv ishlab chiqilishi, linterlash jarayonidagi asosiy parametrlarning matematik modellashtirilishi va eksperimental tekshiruvi o'tkazilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ularning tadqiqot natijalari asosida linter mashinasining ish unumdorligi oshirilgani, chastotali boshqaruv tizimi yordamida arrali silindr va to'zg'itgichning aylanish tezliklarini optimallashtirish natijasida mashinaning energiya tejamkorligi va momiq ajratish samaradorligi yaxshilandi. Tadqiqot natijalari ishlab chiqarish korxonasi sharoitida amaliy sinovdan o'tkazilib, olingan natijalar linter mashinasining barqaror ishlashi, momiq sifat ko'rsatkichlarining yaxshilanishi hamda chigitning mexanik shikastlanish darajasining kamayishini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Linterlash parametrlarini optimallashtirish yo'li bilan urug'lik va texnik chigit hamda momiq sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha olingan natijalar asosida:

takomillashtirilgan va samaradorligi oshirilgan linterlash texnologiyasi "NT Chust g'alla klasteri" MChJ ga qarashli "Chust paxta tozalash" korxonasida ishlab chiqarishga joriy etilgan ("O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari" uyushmasining 2025 yil 15 avgustdagi 04/25-1985 son ma'lumotnomasi). Natijada, linter mashinasi ishchi kamerada chigit valigi zichligining bir xilda ushlanishi, tiqilishlarni oldi olinishi, energiya sarfi qisqarishi hisobiga momiq bo'yicha linterlash unumdorligi o'rtacha 10% ga ortgan, linterlashdan so'ng momiqning iflos

aralashmalar yig'indisi 0,9% ga, chigitning mexanik shikastlanishini 0,8% ga kamayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 30 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 20 ta maqola, jumladan 15 ta respublika va 2 ta chet el ilmiy jurnallarida nashr etilgan va 3 ta EHM uchun dasturga guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 195 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi hamda tadqiqotni amalga oshirish zarurati ilmiy asosda yoritilgan. Ushbu bo'limda tadqiqotning asosiy maqsadi va bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar aniqlashtirilgan, shuningdek, ilmiy izlanishning obyekti va predmeti batafsil tavsiflab berilgan. Olib borilgan tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi asoslab ko'rsatilgan. Tadqiqot natijasida olingan ilmiy yangiliklar va amaliy yechimlar bayon etilib, ularning ahamiyati asoslab berilgan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan hamda ularni ishlab chiqarish sharoitida tatbiq etish imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot mavzusi doirasida chop etilgan ilmiy maqolalar, patent va konferensiya materiallari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bo'lim yakunida dissertatsiya ishining tuzilmasi, boblar mazmuni va ularning mantiqiy izchilligi qisqacha tavsiflab berilgan.

Dissertatsiyaning "**Linter mashinalarining samaradorligini oshirish va ularni takomillashtirish bo'yicha adabiyotlar tahlili**" deb nomlangan birinchi bobida paxta tolasidan ajralgan urug'lik chigit, texnik chigit va lintning sanoatdagi o'rni hamda ahamiyati ilmiy manbalar asosida keng yoritilgan. Adabiyotlar tahlili natijasida chigitni linterlash jarayoni paxta tozalash sanoatida muhim texnologik bosqichlardan biri ekanligi, u nafaqat mahsulot sifatiga, balki ishlab chiqarish jarayonining umumiy samaradorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatishini aniqlash imkonini berdi.


Tahlil jarayonida urug'lik chigit sifatining saqlanishi, shikastlanish darajasining kamaytirilishi, momiqning to'liq ajralishi hamda energiya sarfini optimallashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Jahon va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tahlili shuni ko'rsatadiki, linterlash jarayonining samaradorligi asosan arrali silindrning konstruktiv tuzilishi, arralar soni, aylanish chastotasi, to'zg'itgich parametrlariga bog'liqdir.

Bobda linter mashinalarining tarixiy rivojlanish bosqichlari har tomonlama tahlil qilinib, ularning dastlabki mexanik konstruksiyalaridan tortib, zamonaviy avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari bilan jihozlangan modellarigacha bo'lgan evolyutsiya jarayoni yoritildi. Linterlash texnologiyasining shakllanishida mexanik energiyadan elektr energiyasiga o'tish, ishchi organlarning konstruksion takomillashuvi hamda mahsulot sifatiga yo'naltirilgan texnik yechimlarning joriy etilishi bosqichma-bosqich tahlil qilindi. Hindiston, Turkiya va Xitoyda ishlab chiqarilayotgan zamonaviy linter mashinalarining konstruktiv xususiyatlari, ishlash prinsiplari, texnik ko'rsatkichlari va ularning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri ilmiy manbalar asosida solishtirildi. Shu bilan birga, xorijiy texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan Killar Vardar, Sumer Makina, Bajaj-Cec LE va boshqa mashinalarning texnik ustunliklari, avtomatlashtirish darajasi, energiya tejamkorligi, hamda lint sifatiga ta'siri batafsil o'rganildi. Tahlillar natijasida xorijiy ishlab chiqaruvchilarning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari asosidagi yechimlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, inson omilini kamaytirish va energiya sarfini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Linter mashinasining nazariy va amaliy asoslari tadqiqi”** deb nomlangan ikkinchi bobida linterlash jarayonini nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar yoritilgan. Bobda paxta chigitini linterlash jarayonida xomashyo valigining harakatini aniqlash, linterlash jarayonining muqobil nazariy modellarini ishlab chiqish va mashina ish unumdorligiga ta'sir etuvchi omillarni matematik tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilgan.

Chigit valigi bilan arrali silindrning tutash sirtida momiqni chigitdan ajratishga katta ta'sir qiladigan tutash (kontakt) kuchning qanday qonun bilan taqsimlangani aniqlanmagan. Ishda tutash sirtida hosil bo'ladigan bosimni izohlash va uni tahlil qilish uchun «prujina» modeli taklif etilgan. Unga ko'ra tutash zonasida arralarning chigit valigiga chuqurlashishi bilan normal kuch orasidagi bog'lanish chiziqli qonuniyat bilan tasvirlangan. Bosimning nosimmetrik taqsimlanishi chigit valigining vertikal o'qqa nisbatan qiya burchak hosil qilishi natijasida hosil bo'lish mumkin deb qaraladi. Arrali silindrning burchak aylanish tezligining va arrali silindr markazlarini birlashtiruvchi chiziq bilan vertikal o'q orasida qiya burchakning kontaktda hosil bo'ladigan tishlar bilan valik orasidagi ta'sirlanish kuchlariga ta'siri o'rganilgan, ularni tavsiflash modeli taklif etilgan.

Faraz qilaylik, radiusi arrali silindr R_a bo'lgan absolyut qattiq g'altak bo'lib, radiusi R_c ga teng deformatsiyalanadigan chigit valigi bo'ylab sirpanmay o'zgarmas v chiziqli tezlik bilan harakat qilsin. Kontakt yuzada sirpanish bo'lmaganligi sababli valikning arrali silindr bilan tutashgan har bir nuqtasi shu tezlik bilan harakat qiladi. Natijada valikning kontakt zonasida deformatsiyalanishi vaqt t ning o'ziga aynan bog'liq bo'lmay tutashdagi koordinata bilan arrali silindrning ko'chishi vt orasidagi ayirmaga bog'liq bo'ladi va bunday holat odatda statsionar holat deb ataladi. Bu holatda arrali silindrning aylanishidan hosil bo'lib, chigit valigiga ta'sir etayotgan barcha kuchlar o'zaro muvozanatda bo'ladi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Linter ishchi kamerasida chigit harakatini o'rganishga oid sxema.

To'zitkich aylanganida uning tashqi aylanasini va uning atrofidagi chigit massasi o'rtasida ilashish va ishqalanish kuchlari F_{it} yuzaga keladi hamda bu kuch xomashyo (chigit) valigini aylanishga majbur qiluvchi burovchi moment M_b hosil qiladi. Xomashyo (chigit) valigi shu moment ta'sirida aylanadi. Shu bilan birga, ishchi kamerada xomashyo (chigit) valigining aylanishi ishchi kamera orqa fartugi 2 va old fartugi 3 ichki devorlari sirti hamda kolosnik 6 ishchi yuzasi o'rtasida harakatga qarshilik ko'rsatuvchi kuch F_{is} va qarshilik momenti M_q ni yuzaga keltiradi.

Xomashyo valigi aylanar ekan, bu qarshilik kuchi F_{is} va qarshilik momenti M_q muayyan quvvat sarfi bilan muvozanatga keladi, ya'ni, bu qarshilik kuchi va momenti jarayonning energiya sarfini oshiradi.

Aylanma harakat qilayotgan xomashyo valigining harakat qonuni quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$J \cdot \varepsilon = M_b - M_q + M_a, \quad (1)$$

Bu yerda: J - xomashyo valigining inersiya momenti, $\text{kg} \cdot \text{m}^2$; ε - xomashyo valigining burchak tezlanishi, m/c^2 ; M_a - arrali silindr burovchi momenti, $\text{N} \cdot \text{m}$.

$$J \cdot E = M_6 - M_q + M_a \quad (2)$$

Xomashyo valigi inersiya momenti:

$$J = m \cdot r_k^2 \quad (3)$$

m -xomashyo valigi massasi (130 arrali jin mashinasidagi $m=60-120\text{kg}$, linterda $M=40-60\text{ kg}$, r -ishchi kamera (xomashyo valigi) o'rtacha radiusi (jin mashinasida $r=200-250\text{ mm}$; linterda $r_k = 150 - 160\text{ mm}$

$$E = \frac{dw}{dt} \quad (4)$$

E -xomashyo valigi burchak tezlanishi, $1/\text{c}^2$;

w - xomashyo valigi burchak tezligi, $\frac{1}{\text{c}}$

t -vaqt, sek; to'zitkich aylanishi natijasida hosil bo'ladigan burovchi moment

$$M_6 - M_{6t} \cdot f \quad (5)$$

Bu yerda: M_{6t} –tozitikich aylanganda hosil bo‘ladigan burovchi moment , f -chigit qatlamlari o‘rtasidagi ishqalanishi koefisienti

$$M_{\text{6t}} = \frac{N}{w} \cdot 2 \quad (6)$$

Bu yerda: N -to‘zitgich elektromotori quvvati, B_T ; w -to‘zitgich vali aylanishidagi burchak tezligi, $\frac{1}{c}$;

Bularni hissobga olgan holda quyidagini olamiz :

$$M_{\text{6t}} = \frac{N}{w} \cdot 2 \cdot f \quad (7)$$

xomashyo (chigit) valigi aylanishiga qarshilik qiluvchi moment

$$M_q = F_i \cdot r_k \quad (8)$$

Bu yerda: F_i –xomashyo valigi bilan ishchi kamera ishchi devori orasidagi ishqalanish kuchi , H , r_k - ishchi kamera o‘rtacha radiusi, m;

$$F_i = N \cdot f \quad (9)$$


Linter mashinasining unumdorligini oshirish uchun arra diametri kichraygan sari arrali silindrning aylanish tezligini oshirish maqsadga muvofiqdir (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Linter arrasining diametrini o‘zgarishi bilan uning chiziqli tezligini o‘zgarishi

Arra diametrini o‘zgarishi bilan chiziqli tezlikni o‘zgarishi, m/s	12,2 m/s tezlikni saqlash uchun arraning aylanish tezligini o‘zgarishi, ayl/min
$v_{300} = \frac{\pi * d * n}{60} = \frac{3,14 * 0,3 * 730}{60} = 11,5$	$n = \frac{60 * v_{320}}{\pi * d} = \frac{60 * 12,2}{3,14 * 0,3} = 777$
$v_{290} = \frac{\pi * d * n}{60} = \frac{3,14 * 0,29 * 730}{60} = 11,0$	$n = \frac{60 * v_{290}}{\pi * d} = \frac{60 * 12,2}{3,14 * 0,29} = 803$
$v_{280} = \frac{\pi * d * n}{60} = \frac{3,14 * 0,28 * 730}{60} = 10,7$	$n = \frac{60 * v_{280}}{\pi * d} = \frac{60 * 12,2}{3,14 * 0,28} = 832$

Arrali silindrning ish jarayonida kritik aylanish tezligini aniqlash linterlash mashinasining barqaror va sifatli ishlashini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, arrali silindrning kritik tezligi uning ishchi tezligiga juda yaqin qiymatda joylashadi. Bu holat shuni anglatadiki, agar silindrning aylanish tezligi kritik qiymatga yaqinlashsa, tizimda rezonans hodisasi sodir bo‘lishi mumkin. Natijada, arralar va qobirg‘alar orasidagi tirqish o‘zgarib, linterlash jarayonining barqarorligi buziladi.



2-расм. Linter valining birinchi xususiy chastota epyurasi.

Массовое участие (Нормализовано)

Название исследования: Частота 1

Режим No.	Частота (Герц)	Направление X	Направление Y	Направление Z
1	34.953	0.37268	0.38393	5.4725e-007
2	51.546	0.37118	0.35962	2.5692e-009
3	117.78	0.00062218	0.00064032	0.038049
4	147.46	0.00016252	0.00013792	2.8165e-005
5	221.45	2.0911e-005	2.0214e-005	0.93622
6	256.86	0.020221	0.025277	0.005795
7	287.6	0.043526	0.03898	6.2244e-006
8	309.6	0.00064118	0.00043572	1.6496e-006
9	364.66	0.038896	0.046907	0.011948
10	396.98	0.034153	0.025823	3.1446e-005
		Сумма X = 0.8821	Сумма Y = 0.88177	Сумма Z = 0.99208

Закреть Сохранить Справка

3-расм. Linter valining samarali massa yig'indisi

Linter mashinasining asosiy ishchi organi hisoblangan arrali silindrning dinamik barqarorligi va tebranishga chidamliligi ilmiy jihatdan o'rganildi. Ma'lumki, linter mashinasida arrali silindrning barqaror ishlashi mahsulot sifatini belgilovchi muhim omillardan biri bo'lib, uning tebranish chastotasi kritik qiymatlarga yaqinlashganda mashina unumdorligi pasayadi, energiya sarfi ortadi va chigit hamda lint sifat ko'rsatkichlari yomonlashadi. Shuning uchun ham arrali silindrning kritik tebranish chastotasini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

SolidWorks Simulation dasturidan foydalanib linter valining xususiy chastotasini aniqlandi. Valni o'rnatish shartiga – sharnir, tashqi yuklanishga – taqsimlangan massa $q = 260 \text{ kg}$ kiritildi.


Linter valining birinchi kritik chastotasi 34,953 Gts tashkil qildi (2-3-rasmga qarang). Buni aylanishlar soniga o'tkazamiz, $34,953 \text{ Гц} = 60 \cdot 34,953 = 2097,18 \text{ ayl/min}$ ni tashkil qildi.

$$n_{\text{кр}} \geq 1,3n_{\text{ум}} \text{ shartidan } n_{\text{ум}} \text{ ni topamiz: } 1613,22 \text{ ayl/min} \geq n_{\text{ум}}$$

Tadqiqotlardan linter valining eng katta tezligi arra diametri $\varnothing 272 \text{ mm}$ bo'lganida $n_{\text{ish}} = 832 \text{ ayl/min}$ tashkil qildi, ya'ni $1613,22 \text{ ayl/min} \geq 832 \text{ ayl/min}$ shart bajarildi.


Dissertatsiyaning “**Linter mashinasi parametrlari asosida mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi omillarning matematik tahlili va modellashtirish**” deb nomlangan uchinchi bobida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalari tahlili natijasida linter mashinasining texnologik samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy parametrlar — to'zitqich va arrali silindr aylanish tezliklari, arraning diametri hamda ishchi kameradagi xomashyo harakatining o'zgaruvchan xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida linterlash jarayonining asosiy bosqichlari va mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi omillar eksperimental va matematik yondashuv asosida chuqur o'rganildi.

Linterlash jarayonida to'zitqichning aylanish tezligi o'zgarganda jarayonning samaradorligi va chigit sifati qanday ta'sirlanishi tajribalar orqali o'rganildi. Ushbu tadqiqotda to'zitqichning aylanish tezligi 300, 400, 500, 600 va 700 ayl/min qiymatlarida sinovdan o'tkazildi (4-rasmga qarang).




4-rasm. To'zitqichning aylanish tezligi o'zgarishi bilan linter mashinasining chigit bo'yicha ish unumdorligi o'zgarishi grafigi

Linter mashinasining ishchi kamerasida to'zg'itgich aylanish tezligining chigit bo'yicha unumdorlikka ta'siri tasvirlangan. Grafik ma'lumotlariga ko'ra, to'zg'itgich aylanish tezligi 300 ayl/min dan 700 ayl/min gacha oshirilganda, chigit bo'yicha unumdorlik 7 kg/min dan 17,5 kg/min gacha muntazam ravishda ortgan. To'zg'itgichning aylanish tezligi ortishi bilan chigitlar arrali silindr tishlariga bir tekisda uzatiladi va lintning ajralish jarayoni barqarorlik kasb etadi. Linter mashinasining optimal ish rejimini aniqlash, uning texnologik samaradorligini baholash hamda chiquvchi mahsulot sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash maqsadida tajriba ishlari laboratoriya sharoitida tashkil etildi.



5-rasm. To'zitqichning aylanish tezligi o'zgarishi bilan linter mashinasining momiq bo'yicha ish unumdorligiga ta'sir grafigi




6-rasm. To'zitqichning aylanish tezligi o'zgarishi bilan linter mashinasida chigit shikastlanishiga ta'siri grafigi.

Linter mashinasining ishchi kamerasida to'zg'itgich aylanish tezligining momiq bo'yicha unumdorlikka ta'siri ifodalangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, to'zg'itgich aylanish tezligi 300 ayl/min dan 700 ayl/min gacha


oshirilganda, momiq bo'yicha unumdorlik 0,244 kg/min dan 0,569 kg/min gacha muntazam ortadi (5-rasmga qarang). Bu natija to'zg'itgichning harakat tezligi oshishi bilan birgalikda ishchi kamerada mexanik ta'sir kuchining ortishi va havo oqimining intensivligi kuchayishi bilan bog'liq. To'zg'itgichning aylanish tezligi oshgani sari chigitlar orasidagi zichlik kamayadi, ular erkinroq harakatlana boshlaydi va arrali silindr tishlariga kirish jarayoni barqarorlashadi. Natijada chigit yuzasidan momiqning ajralish darajasi ortib, lintning to'liqroq ajralishi ta'minlanadi. Bu esa mashina unumdorligini bevosita oshiradi hamda momiqning chiqish miqdori bo'yicha yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Juda yuqori aylanish tezliklarida (650–700 ayl/min dan ortiq) to'zg'itgich tomonidan hosil qilinadigan intensiv mexanik ta'sir natijasida chigitning mexanik shikastlanish ehtimoli ortadi.

Grafik chigitning mexanik shikastlanish darajasi (%) va to'zitqichning aylanish tezligi (ayl/min) o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, to'zitqich aylanish tezligi past bo'lgan (300 ayl/min) holatda chigit shikastlanishi eng yuqori darajada, ya'ni 5,5 % ni tashkil etadi. Bu holat past tezlikda linterlash jarayonida chigitlarning ishchi kameradan chiqish vaqti ortishi va ularning me'yoridan ortiq mexanik ta'sirga duchor bo'lishi bilan izohlanadi (6-rasmga qarang).

Tezlik 400–500 ayl/min ga oshirilganda shikastlanish darajasi sekin-asta kamayadi va 500 ayl/min da eng past qiymatga, ya'ni 5,1 % ga yetadi. Bu diapazonda to'zitqich optimal tezlikda ishlaydi: chigitlar arrali silindrga yetarli vaqt davomida yo'naltiriladi va ularni samarali tarzda ushlab turish imkoniyati mavjud bo'ladi. Natijada mexanik shikastlanish minimal darajada bo'ladi. Biroq, tezlik 600–700 ayl/min ga oshganda chigitning shikastlanish darajasi yana ko'tarila boshlaydi. Bu holat yuqori tezlikdagi to'zitqichning chigitlarni arrali silindrga yetkazish jarayonida ularni katta tezlik bilan urilishi bilan bog'liq. Natijada chigitlar yuqori mexanik shikastlanishiga duchor bo'lib, shikastlanish darajasi oshadi.



7-rasm. Arrali silindr va to'zg'itgich tezligining texnik chigitning tukdorligiga ta'siri



8-rasm. Arrali silindr va to'zg'itgich tezligining urug'lik chigitning tukdorligiga ta'siri

Grafik tahlili natijalari (7-8-rasmlarga qarang) shuni ko'rsatadiki, arrali silindr va to'zg'itgich tezliklari oshishi bilan chigitning tukdorlik darajasi izchil kamayib boradi. Bu holat linterlash jarayonida momiqning chigit yuzasidan samaraliroq ajralayotganini bildiradi. Tezlik ortgan sari arrali silindr tishlari chigit yuzasiga nisbatan yuqori chiziqli tezlikda harakatlanadi, bu esa tolani ushlab ajratish jarayonining intensivligini oshiradi. Natijada momiqning katta qismi chigitdan to'liq ajralib chiqadi, tukdorlik darajasi esa kamayadi.

Tajribalar jarayonida mashina konstruktiv parametrlaridan biri bo'lgan arrali silindr diametri, uning aylanish tezligi hamda to'zg'itkichning aylanish tezligi asosiy kiruvchi omillar sifatida qabul qilindi. Ushbu parametrlarning turli qiymatlarda qo'llanishi mashina ish jarayonida hosil bo'ladigan natijalar (unumdorlik va mahsulot sifati) ning o'zgarishini tizimli ravishda o'rganish imkonini berdi. Shuningdek, tanlab olingan sinov sharoitlari ishlab chiqarish jarayonida keng uchraydigan amaliy texnologik holatlarni modellashtirishga xizmat qildi. Bu esa tajriba natijalarini nafaqat laboratoriya sharoitida, balki sanoat miqyosida ham qo'llash imkonini yaratadi. O'tkazilgan tajribalar asosida mashina ish rejimining optimal diapazonlarini aniqlash, texnologik jarayonning barqarorligini ta'minlash hamda yakuniy mahsulot sifatini oshirish uchun ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkoni yuzaga keldi.

Tajriba ishlari Namangan muhitiga mos, seleksion Namangan-77 navli, I-sanoat navli, namligi 7,1 % va iflosligi 1,6 % bo'lgan qo'l terimli paxta xomashyosi asosida o'tkazildi. Tajriba jarayonida har bir parametrning qiymati alohida va kompleks holda o'zgartirilib, natijalar qayd etildi. Olingan ma'lumotlar asosida statistik tahlil olib borilib, mashina ish rejimlarining optimal diapazonlarini aniqlash imkoniyati yaratildi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Tadqiq etilayotgan omillar o'zgarish sathlari va oraliqlarini tanlash


Omillar	X_{\min}	X_{\max}	Δ	X_0
Arrali silindr diametri, (mm)	280	300	10	290
Arrali silindr aylanish tezligi n_{mesl} (ayl/min)	650	850	100	750
To'zg'itkichning aylanish tezligi n_t (ayl/min)	450	550	50	500

Paxta xomashyosini linterlash jarayonida mashina ishchi organlarining tezlik rejimlari texnologik natijalarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Xususan, arrali silindr va to'zg'itgichning aylanish tezliklari chigitga beriladigan mexanik yuklanish darajasini belgilab, chigitning mexanik shikastlanishi hamda momiq tarkibidagi nuqsonlarning miqdorini o'zgartiradi. Chigitning ortiqcha shikastlanishi esa nafaqat urug' sifat ko'rsatkichlarining yomonlashishiga, balki momiq tarkibida iflos aralashmalar ulushining ortishiga olib kelib, yakuniy mahsulot sifatini pasaytiradi.


Regressiya koeffitsientlarini aniqlashda Styudent, matematik modelning adekvatlikka tekshirish maqsadida Fisher mezonlaridan foydalanildi. Chiquvchi omillar sifatida y_1 – mashinaning chigit bo‘yicha unumdorligi, kg/soat, y_2 – momiqdagi, nuqsonlar va iflos aralashmalar massaviy ulushi, % y_3 – chigitning mexanik shikastlanganligi, % bo‘yicha tanlandi. Tadqiq etilayotgan omillar o‘zgarish sathlarida va yuqori qiymatlari asosida Markaziy nokompozitsion tajriba matritsasidan foydalanib o‘tkazilgan tajriba natijalari keltirilgan.

$$Y_1 = 11 + 0,69x_1 + 1,21x_2 + 0,35x_3 + 0,33x_1x_2 + 0,10x_1x_3 + 0,5x_2x_3 + 0,24x_1^2 - 0,19x_2^2$$

Bunda arrali silindr va to‘zg‘itgich tezliklarining uyg‘unligi muhim rol o‘ynaydi: faqat bittasining tezligini oshirish yetarli bo‘lmagan, balki ikkalasini birgalikda oshirish samaradorlikni sezilarli darajada yaxshilagan. Mashinaning chigit bo‘yicha unumdorligi arrali silindr va to‘zg‘itgich tezliklari o‘zgarishiga kuchli bog‘liq. Optimal natijalar tezliklarning yuqori qiymatlarida kuzatilgan. Demak, ishlab chiqarish jarayonida unumdorlikni oshirish uchun arrali silindr va to‘zg‘itgich tezliklarini muvofiqlashtirilgan holda tanlash lozim.




9-rasm. Arrali silindr diametri (x_1) va uning tezligi (x_2)ning chigit bo‘yicha unumdorligi (y_1) ta’siri




10-rasm. Arrali silindr tezligi va to‘zg‘itgich tezligi o‘zgarishida chigit unumdorligiga (y_1) ta’siri

Arrali silindr va to‘zg‘itgichlarning aylanish tezliklari oshishi (550, 850 ayl/min) ham unumdorlikni izchil oshirib borgan. Optimal natijalar silindr diametri 300 mm va tezliklar 550 va 850 ayl/min bo‘lganda kuzatilgan. Aksincha, diametrning kichik qiymatlarida (280 mm) va past tezliklarda (650 ayl/min) mashinaning unumdorligi minimal bo‘lib qolgan. Grafik tahlili shuni ko‘rsatadiki, arrali silindrning diametri va tezligi mashinaning chigit bo‘yicha unumdorligiga bevosita ta’sir qiladi (9-10-11-12-rasmga qarang).

$$Y_2 = 3,47 - 0,2x_1 - 0,38x_2 + 0,13x_3 + 0,18x_1x_2 + 0,14x_2^2 - 0,10x_3^2$$




11-rasm. Arrali silindr tezligi va to'zg'itgich tezligi o'zgarishida chigitning mexanik shikastlanganligi (y_2) ta'siri




12-rasm. To'zg'itgich tezligi va arrali silindr diametri o'zgarishida chigitning mexanik shikastlanganligi (y_2) ta'siri

$$Y_3 = 5,27 - 0,1x_1 - 0,4x_2 + 0,1x_3 + 0,1x_1x_3 - 0,15x_2x_3 + 0,14x_1^2 + 0,14x_2^2 + 0,16x_3^2$$



13-rasm. Arrali silindr diametri (x_1) va uning tezligi (x_2) ning y_3 - momiqdagi iflos aralashmalar massaviy ulushiga ta'siri




14-rasm. Arrali silindr tezligi va to'zg'itgich tezligi o'zgarishida momiqdagi iflos aralashmalar massaviy ulushiga (y_3) ta'siri

Chigitning mexanik shikastlanishi va momiqdagi iflos aralashmalar miqdori arrali silindrning aylanish tezligi oshganda arralarning chiziqli tezligi ham ortadi, bu esa chigitning arrali silindr tishlariga kuchliroq tortilishiga olib keladi. Tezlikning

haddan tashqari oshishi natijasida arralar chigit po‘stlog‘iga chuqur kirib boradi, bu esa urug‘ning mexanik deformatsiyasi va po‘stloq yorilishiga sabab bo‘ladi. To‘zg‘itgich tezligi linterlash jarayonida xomashyo oqimining dinamikasini belgilaydi. Tezlikning ortishi bilan to‘zg‘itgichning zarba kuchi ham ortib boradi va chigit yuzasida qo‘shimcha mexanik ta‘sir yuzaga keladi. Arraning diametri ham chigit shikastlanishiga muhim ta‘sir ko‘rsatadi. Diametr kattalashganda arraning chiziqli tezligi ortadi, bu momiq ajralish samaradorligini yaxshilaydi, biroq kesuvchi kuchning ortishi natijasida chigit po‘stlog‘ining mexanik shikastlanishva va momiqdagi iflos aralashmalar miqdori xavfi oshadi (13-14-rasmlarga qarang).

Dissertatsiyaning “**Linter mashinasi parametrlari asosida mahsulot sifatiga ta‘sir etuvchi omillarni ishlab chiqarish sharoitida sinash**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida Linter mashinasining texnologik jarayonini optimallashtirish maqsadida uning asosiy ishchi organlari – arrali silindr diametri o‘zgarishiga, arrali silindr va to‘zg‘itgich tezliklarini chastota o‘zgartirgichlar yordamida boshqarish imkoniyatlari chuqur o‘rganildi. Ishlab chiqarish sharoitida olib borilgan tajribasinovlar asosida, tezliklarni mos diapazonda roslash mahsulot sifat ko‘rsatkichlariga bevosita ta‘sir etishi aniqlangan.

Chastota roslash tizimlari asinxron motor tezligini o‘zgartirish imkonini beradigan statik o‘zgartirgichlar bo‘lib, ularning oddiy tuzilishi, yuqori ishonchliligi va texnik xizmat ko‘rsatish qulayligi sanoatning ko‘plab tarmoqlarida qo‘llanilishiga sabab bo‘ladi. Avtomatlashtirilgan ishga tushirish tizimlari qarshilikni bosqichsiz roslash hamda tokni belgilangan diapazonda boshqarish imkonini beradi, bu esa ishga tushirish jarayonidagi nosozliklarni kamaytirib, umumiy ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.




15-rasm. Asinxron motorninng pog‘onasiz ishga tushish diagrammasi

Avtomatlashtirilgan ishga tushirish tizimlari qarshilikni bosqichsiz roslash hamda tokni belgilangan diapazonda boshqarish imkonini beradi. Pog‘onasiz va ortiqcha yuklamasiz ishga tushirish, mexanik zarbalarsiz tezlanishni ta‘minlaydi. Bu motor hamda unga ulangan mexanizmlarning yuklanishini kamaytirib, ularning xizmat muddatini uzaytiradi. Motorni ortiqcha tok, qizib ketish, yerga ulanishdagi nosozliklar va tarmoqdagi uzilishlardan himoyalash funksiyasi mavjud (15-rasmga qarang).

Ishchi kameradagi to‘zitgich va arrali silindr tezliklarini avtomatik boshqarishda DELIXI E100G011T4BL va E100G022T4B rusumli chastota o‘zgartirgichlardan

foydalaniladi. Asosan bu chastota o'zgartirgichlar yuqori samaradorlik va aniq boshqaruv imkoniyatli bo'lib, elektr dvigatellarni avtomatik boshqarish va energiya tejash uchun ishlatiladi (16-rasmga qarang). Bu chastota o'zgartirgich energiya tejamkorligi, silliq ishga tushirish (3-jadvalga qarang), yumshoq to'xtash va dvigatellarni yuqori darajada nazorat qilish imkoniyatlarga ega.



Model	W	W1	H	H1	D	D1	Ød
CDI-E100G018.5/P022T4	260	245	340	325	223	210.5	5.5
CDI-E100G022/P030T4							

16-rasm. DELIXI E100G022T4B chastota o'zgartirgichning ko'rinishi

3-jadval

DELIXI E100G022T4B Chastotali inverterni texnik tavsifi

Chastotali inverter turi	Nominal quvvat	Nominal kirish oqimi	Nominal chiqish oqimi	Moslashuvchan motor
	(KVA)	(A)	(A)	(kW)
T4 (uch fazali 380V, 50/60Hz) (15kVt va standart o'rnatilgan tormoz blokidan past)				
